O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

TOLIBOVA GULNOZ RUSTAMOVNA

XORIJIY TILNI INTENSIV O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH (o‘quv kurslari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 37.016:81’243

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Tolibova Gulnoz Rustamovna
Xorijiy tilni intensiv o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish (o‘quv kurslari misolida) ……. 3

Толибова Гулноз Рустамовна
Формирование коммуникативной компетенции при интенсивном обучении иностранному языку (на примере учебных курсов) …… 25

Tolibova Gulnoz Rustamovna
Formation of Communicative Competence in Intensive Foreign Language Teaching (as an Example of Educational Courses)…...…..…….....51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

TOLIBOVA GULNOZ RUSTAMOVNA

XORIJIY TILNI INTENSIV O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH (o‘quv kurslari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2020.2.PhD/Ped1573 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Teshabayeva Dilfuza Muminovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jumanazarov Umid Umurzoqovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Kurbanbayev Djavad Aminbayevich pedagogika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “__” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M.Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d. (DSc), professor

F.G.Zakirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, ped.f.f.d. (PhD), dotsent

A.B. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida xorijiy tillarni intensiv o‘qitish, til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish hamda ularni madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga xizmat qiluvchi didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Intensiv ta'limga yo‘naltirilgan til kurslarida kreativ va kognitiv yondashuvlarga asoslangan innovatsion metodlardan foydalanish til o‘rganuvchilarning kommunikativ faolligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq xorijiy tilni intensiv o‘qitish sharoitida kommunikativ kompetensiyani izchil shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari va amaliy mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi sababli, til o‘rganuvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shu bois, xorijiy tilni intensiv o‘qitish orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini rivojlantirish xorijiy tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

Dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirish, til o‘rganuvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va pragmatik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada Polshaning Warsaw School of Applied Linguistics hamda Indoneziyaning Universitas Negeri Malang ta'lim muassasalarida ingliz tilini intensiv o‘qitishning innovatsion metodlari, kommunikativ yondashuvga asoslangan o‘quv dasturlari va interaktiv ta'lim texnologiyalari amaliyotga samarali tatbiq etilmoqda. Mazkur tajribalar til o‘rganuvchilarning amaliy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali modeli sifatida xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Ushbu yo‘nalishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini boyitish, kommunikativ vaziyatlarga yo‘naltirilgan metodik model, o‘quv dasturlari va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda interaktiv ta'lim texnologiyalarining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining istiqbolli ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Kelgusida intensiv til kurslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik ta'minotini optimallashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt vositalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash, shuningdek, ularning ta'lim natijalariga ta'sirini kompleks baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim sifatini tubdan modernizatsiyalash xorijiy tillarni o‘rgatishning jadallashtirilgan metodikasini joriy etish, chet tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini oshirdi. Zero, "Fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini

yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish”[1]ga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, til o‘qitish kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar, tashkiliy va didaktik asoslarni ishlab chiqishni, o‘quv kurslari mazmunini takomillashtirish, o‘qitish metodikasini zamonaviy yondashuvlar va ergonomik muhitda tashkil qilishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta’lim va tarbiya hamda fan sohalarini rivojlantirish choralari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi VMQ-34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari T.K.Sattorov, J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.A.Iriskulov, U.H.Xoshimov, L.T.Axmedova, I.M.Tuxtasinov, K.Sh.Muradkasimova[2]lar kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida turli nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari yuzasidan S.I.Kazakbayeva, S.A.Ziyayeva, D.Sh.Olimova, A.A.Isoqov, F.Sh.Alimov, M.A.Nazarova, M.X.Gulyamova, A.B.Raxmonov, G.X.Ruziyeva,

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-4545884 [Murojaat etilgan sana: 30.01.2025].

[2] Сатторов Т. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси (инглиз тили материалида). – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 191 б.; Жалалов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 432 б.; Bakieva G. va b. Touch the Future. – Tashkent O‘zDJTU, 2005. – 143 p.; Хошимов Ў., Ёқубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 301 б.; Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Ташкент: Фан ва технология, 2016. – 296 с.; Мурадкасимова К.Ш. Бўлажак мутахассисларнинг баҳолаш компетенциясини такомиллаштириш концепцияси. Пед. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2022. – 100 b.

I.X.Ibragimovlar[3] tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy tilni intensiv o‘qitish masalasiga MDH olimlaridan: L.S.Gegechkori, I.N.Zimnyaya, V.A.Votinova, G.A.Kitaygorodskaya, A.A.Leontyeva, S.I.Melnik, E.I.Passova, Y.I.Shexter, A.A.Bodalev, Yu.M.Emelyanov, Y.M.Jukov, V.N.Kunitsyna, I.U.Odinayev[4] va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan e’tibor qaratilgan.

Xorij olimlari S.Burton va P.Nesbit, F.Bedard va L.Tomas, B.Grant va R.Messinalarning ilmiy izlanishlarida til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini intensiv ta’lim sharoitida shakllantirish, nutqiy ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda qo‘llash, turli vaziyatlarda fikrini erkin bayon etishga qaratilgan texnologiya va yondashuvlar, mashqlar tizimi tadqiq etilgan[5].

Ammo mamlakatimiz o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali turli soha vakillarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish masalasi

---

[3] Казакбаева С.И. Формирование национально-культурного уровня коммуникативной компетенции у студентов-узбеков факультетов русской филологии. Дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2000. – 231 с.; Ziyayeva S.A. Nemis tilini o‘rganishda talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirish: omillar va shartlar // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – Toshkent, 2020. – № 3 (32). – 113 b.; Олимова Д.Ш. Олий педагогик таълим тизимида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив кўникмаларини шакллантириш. Пед. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2005. – 170 б.; Исоқов А.А. Академик лицей ўқувчиларининг инглиз тилида грамматик кўникмаларини такомиллаштириш технологиялари. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 160 б.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида). Пед. фан. б. фалс. док ... дисс. − Тошкент, 2018. – 158 б.; Назарова М.А. Обучение студентов лексической полисемии при чтении текстов на английском языке. Дисс. ... док. фил. пед. наук. – Ташкент, 2017. – 147 с.; Назарова С. Совершенствование иноязычной лексической компетенции студентов при обучении китайскому языку. Дисс. ... док. филос. пед. наук. – Ташкент, 2018. – 162 с.; Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув. Пед. фан. б. фалс. док. ... дисс. − Тошкент, 2019. – 164 б.; Рахмонов А.Б. Ўқувчиларнинг коммуникатив кўникмаларини ахборот-коммуникация технологиялари воситалари ёрдамида шакллантириш (5-9-синф ўқувчилари мисолида). Пед. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 19 б.; Рузиева Г.Х. Филолог талабаларга чет тилини ўқитишда лингвистик компетенцияни шакллантириш (инглиз тили идиомалари мисолида). Пед. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 25 б.; Ibragimov I.X. Intensive methods of teaching foreign languages at university // Вопросы науки и образования. – М., 2018. – № 27 (39). – С. 80.

[4] Gegechkori L.S. On the problem of intensification of the process of teaching adults foreign language speech / L.S.Gegechkori. – Tbilisi: Tbil Publishing House. un-ta, 1975. – 297 p.; Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 1991. – 222 с.; Вотинова В.А. Некоторые вопросы гипнопедии. Информ.-метод. пособие под ред. доц. Н.З.Богозова. – М.: Магадан, 1965. – 57 с.; Китайгородская Г.А. Материалы лекции, прочитанной в программе «Академия» по каналу «Культура» 11 декабря 2012 г.; Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, Санкт-Петербург: Лань, 2003. – 287 с.; Мельник С.И. Интенсивные методы и проблема обучения грамматике. Методы интенсивного обучения иностранным языкам (вып. 4). – М.: Изд-во МГПИИЯ им. М.Тореза, 1977. – С. 5-12; Пассов Е. И. Коммуникативность: прошлое, настоящее, будущее // Русский язык за рубежом, 2010. – № 5. – С. 625; Бодалев А.А. Психология общения. – М.: Институт практической психологии, Воронеж: МОДЭК, 1996. – 256 с.; Емельянов Ю.Н. Теория формирования и практика совершенствования коммуникативной компетентности. – М.: Просвещение, 1995. – 183 с.; Жуков Ю.М. Диагностика и развитие компетентности в общении. Л.А.Петровская, П.В.Растянников. МГУ им. М.В.Ломоносова, Фак. психологии. – Киров: ЭНИОМ, 1991. – 96 с. Куницына В.Н. Межличностное общение: учебник для вузов / В.Н.Куницына. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 544 с.; Одинаев И. Интенсивные технологии обучения русскому языку в системе высшего образования (на примере нефилологических специальностей вузов Республики Таджикистан). – Душанбе, 2013. – 168 с.

[5] Burton S. & Nesbit P. An analysis of student and faculty attitude to intensive teaching. Paper presented at the celebrating teaching and Macquire. – Macquire University, 2002; Bedard F. & Thomas L. Impact des politiques linguistiques du Québec sur le développement de l‘enseignement de l‘anglais, langue seconde. Unpublished Master‘s Thesis, Université de Sherbrooke, Sherbrooke. – Canada, 2002; Grant B. Using block courses for teaching logistics // International Journal of Physical Distribution and Logistics management, 2001. – № 31 (7/8). – P. 574 // http://dx.doi.org/10.1108/09600030110402987; Messina R.C. (1996). Power package: An alternative to traditional course scheduling // ERIC Document Reproduction Service, No. ED 396 787.

maxsus o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Chet tillarni o‘qitish metodikasining yangi yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga doir pedagogik-psixologik imkoniyatlarni mavjud ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida aniqlashtirish;

o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bosqichlarini belgilash va mexanizmlarini ishlab chiqish;

o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning metodik ta’minotini takomillashtirish;

o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasini rivojlantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali katta yoshdagi til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so‘rovnoma, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini intensiv o‘qitish jarayonida til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik (ehtiyoj → qiziqish → refleksivlik → kognitivlik → moslashuvchanlik → shaxsga yo‘naltirilganlik) komponentlar, real kommunikativ vaziyatlarda kompetensiya shakllanishiga ta’sir etuvchi motivatsion-kognitiv va refleksiv-adaptiv kabi ichki hamda pedagogik-metodik hamda tashkiliy-kommunikativ singari tashqi omillar aniqlangan;

ingliz tilini intensiv o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik ta’minoti darajaviy-selektiv matriks, kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiyalash texnologiyasi hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan indikatorlar strukturasini ta’lim jarayoniga funksional-bosqichli integratsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda mikro, makro va subyektiv darajadagi to‘siqlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan ergonomik o‘quv muhiti, autentik resurslar va shaffof kommunikatsiyaning

refleksiv-boshqaruvchanligini ta’minlash hamda tashkiliy, amaliy va yakuniy-natijaviy implementatsiya sxemasidan iborat algoritmik struktura asosida IKTK (intensiv-kommunikativ tarmoqli kalibrlash) mexanizmi ishlab chiqilgan;

intensiv o‘qitish metodikasining integrativ-differensial ta’lim muhitida qo‘llanilishi til o‘rganuvchilarni placement test natijalari asosida BKO‘ (bosqichli kommunikativ o‘rganuvchilar A1→B1) va IKO‘ (ijodiy kommunikativ o‘rganuvchilar A2→B2) guruhlariga darajaviy differensiatsiyalash hamda kognitiv-affektiv xususiyatlariga moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

til o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga doir “Lingvodidaktik terminlarning elektron lug‘ati” hamda “Lingvodidaktik terminlarning izohli lug‘ati” yaratilgan;

innovatsion metodik ta’minotga asoslangan maxsus dasturlar va platformalar yaratish, ta’lim jarayonini rejalashtirishga doir tashkiliy-metodik ta’minot ishlab chiqilgan;

til o‘rganuvchilar uchun moslashtirilgan mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, keys-vaziyatlar va madaniyatlararo muloqotga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga olgan mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan xorijiy tilni intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha o‘quv kurslari dasturlarini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot ishida tahlil qilingan nazariy ma’lumotlar, fikrlar va yondashuvlar rasmiy, ilmiy manbalardan olingani, o‘quv kurslarida ingliz tilini xorijiy til sifatida intensiv o‘qitishning amaldagi o‘quv-metodik va me’yoriy hujjatlari o‘rganilgani, zamonaviy innovatsion metodika asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi, yaratilgan lug‘atlar amaliyotga tatbiq etilgani, tajriba-sinov ishlari belgilangan tadqiqot obyektlari o‘quv kurslarida olib borilgani, natijalar statistik tahlil qilinib isbotlangani, erishilgan natijalarning samaradorligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati olib borilgan izlanishlar samarasi til o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyani (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va b.) shakllantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarini turli vaziyatlar va faoliyatida samarali qo‘llashga yordam berishi, olingan ilmiy natija va xulosalar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa xorijiy tilni intensiv o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi, til o‘rganuvchilarning ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani o‘zlashtirish bo‘yicha didaktik va metodik ta’minotini ta’minlashda o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengishga, tadqiqot materiallaridan til o‘rganuvchilar til o‘qitish kurslaridagi amaliy mashg‘ulotlarida hamda shu soha bo‘yicha o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘quv kurslarida xorijiy tilni intensiv o‘qitish orqali til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tilini intensiv o‘qitish jarayonida til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik (ehtiyoj → qiziqish → refleksivlik → kognitivlik → moslashuvchanlik → shaxsga yo‘naltirilganlik) komponentlar, real kommunikativ vaziyatlarda kompetensiya shakllanishiga ta’sir etuvchi motivatsion-kognitiv hamda refleksiv-adaptiv kabi ichki va pedagogik-metodik hamda tashkiliy-kommunikativ singari tashqi omillar aniqlanganligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan “Ibrat Farzandlari” fundamental loyihasida foydalanilgan (Ibrat Farzandlari nodavlat notijorat tashkiloti 2024-yil 13-maydagi 16-son ma’lumotnomasi). Natijada xorijiy tillarni intensiv o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni (lingvistik, psixologik va metodik) kommunikativ yondashuv orqali bartaraf etish yo‘llari aniqlashtirilgan;

ingliz tilini intensiv o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik ta’minoti darajaviy-selektiv matriks, kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiyalash texnologiyasi hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan indikatorlar strukturasini ta’lim jarayoniga funksional-bosqichli integratsiya qilish asosida takomillashtirilganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida 2023-2024-yillarda bajarilgan “Tizim” №37-06.06/12 shifrli amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining 2025-yil 13-iyundagi 10/1219-son ma’lumotnomasi). Natijada intensiv o‘qitish orqali o‘quv kurslarida til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi ortishiga erishilgan;

til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda mikro, makro va subyektiv darajadagi to‘siqlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan ergonomik o‘quv muhiti, autentik resurslar va shaffof kommunikatsiyaning refleksiv-boshqaruvchanligini ta’minlash hamda tashkiliy, amaliy va yakuniy-natijaviy implementatsiya sxemasidan iborat algoritmik struktura asosida IKTK (intensiv-kommunikativ tarmoqli kalibrlash) mexanizmi ishlab chiqilganligiga oid xulosalardan 2023-2025-yillarda O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida amalga oshirilgan AL-672205602 raqamli “Ko‘zi ojizlar uchun spelling audio dictionary” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 2025-yil 8-maydagi 04-03/486-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘zi ojiz til o‘rganuvchilarda yuzaga keladigan qiyinchiliklar yechimiga doir amaliy tavsiyalar asosida lug‘atlar ishlab chiqilgan;

intensiv o‘qitish metodikasining integrativ-differensial ta’lim muhitida qo‘llanilishi til o‘rganuvchilarni placement test natijalari asosida BKO‘ (bosqichli kommunikativ o‘rganuvchilar A1→B1) va IKO‘ (ijodiy kommunikativ o‘rganuvchilar A2→B2) guruhlariga darajaviy differensiatsiyalash hamda kognitiv-affektiv xususiyatlariga moslashtirish asosida takomillashtirilganligiga

oid ilmiy natijalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Germaniyaning Gumboldt universiteti bilan hamkorlikdagi 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan “Erasmus+ International KA107 Credit mobility Key action 1-Mobility for learners and staff – Higher education student and staff mobility” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 24-noyabrdagi 04/1-5648-son ma’lumotnomasi). Natijada intensiv ta’lim sharoitida til o‘rganuvchilarning til materialini tezkor qabul qilishi, vaziyatga mos nutq birliklarini tanlashi, mazmunni aniq yetkazishi va ijtimoiy-lisoniy moslashuv imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 260 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘quv kursi til o‘rganuvchilariga xorijiy tillarni o‘qitish asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida xorijiy til ta’limida kommunikativ kompetensiya va uning komponentlariga xos nazariy asoslar, intensiv ta’limga asoslangan o‘quv kurslarida xorijiy tillarni o‘qitish xususiyatlari hamda o‘quv kurslarida ingliz tilini o‘qitish intensivligi, uni tashkil etish maqsadi va mazmuni kabi masalalar yoritilgan.

Davlatimiz tomonidan xorijiy tillarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar o‘sib kelayotgan kelajak avlodni chet tilida erkin so‘zlashishga o‘rgatish, buning negizida bo‘lg‘usi kadrlarning o‘z faoliyatlari doirasida xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iboratdir. Zero, G.X.Ruziyevaning fikricha: “... kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan munosabatlarni kengaytirish masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘p jihatdan ularning xorijiy lisoniy tayyorgarligi

sifatiga bog‘liq”[6]. Ayni damda xorijiy til o‘qitish jarayonida keng qo‘llanilayotgan tushunchalar “kompetensiya”, “kompetentlik” hamda “kompetensiyaviy yondashuv” tushunchalari bo‘lib, ular ta’limni tashkil etishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish sharoitidagi tizimli o‘zgarishlar “kompetensiya” tushunchasining doimiy o‘zgarishiga yordam berdi. Bu olimlar tomonidan turli yo‘llar bilan izohlanadi. K.Kinning fikricha, “kompetensiya mahorat, bilim, tajriba, kontaktlar, qadriyatlar, ular kaft tomonidan muvofiqlashtiriladi va asab tomonidan boshqariladi, butun qo‘lni boshqaradigan tizim”[7]dir.

L.T.Ahmedova kompetensiyani “…muloqot ishtirokchisining o‘z tomonidan qo‘yilgan aniq motiv va maqsadlar bilan asoslangan turli xil harakatlarni amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar yig‘indisidir”[8] deb izohlaydi. M.X.Gulyamova kompetensiyaviy yondashuv tushunchasini tahlilga tortib, “... til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan o‘z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash hamda nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya’ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat”[9] ekanligiga e’tibor qaratadi. Kommunikativ kompetensiya o‘zaro shaxsiy munosabatlarga oid vaziyatlarning muayyan doirasida samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimini tashkil qiladi. Kommunikativ kompetensiya – bu lisoniy ko‘nikmalar va nutqiy mahoratlar bilan mustahkamlangan og‘zaki muloqot vositalari hamda strategiyalarga asoslangan samarali kommunikativ faoliyatning namoyish etiladigan sohasi[10].

Mualliflik yondashuvi asosida kompetensiya tushunchasi quyidagicha ta’riflangan: *“Kompetensiya – bu shaxsning nafaqat ma’lum bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari, balki individual qobiliyatlari yig‘indisi, talab qilinadigan fazilatlarni shakllantirishning muayyan yakuniy natijasi – xorijiy til o‘rganuvchilarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar, intilishi kerak bo‘lgan turli shaxsiy fazilatlar to‘plami”.*

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish chet el madaniyati, ma’lum bir yosh uchun eng muhim bo‘lgan muloqot vaziyatlarida tilni malaka va ko‘nikmalar bilan birgalikda o‘rganishni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetensiya – bu o‘z ichiga kommunikativ qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malakalarni, ishga oid muloqot doirasidagi hissiy va ijtimoiy tajribani olgan shaxsning umumlashtiruvchi

---

[6] Рузиева Г.Х. Филолог талабаларга чет тилини ўқитишда лингвистик компетенцияни шакллантириш (инглиз тили идиомалари мисолида). Пед. фан. б. фалс. док. … дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 30.

[7] Keen K. Competence: What is it and how can it be developed? / In J.Lowyck, P. de Potter, & J.Elen (Eds.). – Brussels: IBM Education Center, 1992. – P. 111-122.

[8] Ахмедова Л. «Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка» в образовательном процессе Республики Узбекистан // https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/ Laylo-Axmedova.pdf

[9] Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув. Пед. фан. б. фалс. док. … дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 35.

[10] http://www.englishteachers.ru/forum/index.php≤showtopic=280

kommunikativ xususiyatini tashkil qiladi. Kommunikativ kompetensiya bo‘yicha so‘nggi nazariy va empirik tadqiqotlar ko‘p jihatdan kommunikativ kompetensiyaning uchta modeliga asoslanadi: Kanale va Sueyn modeli, Baxman va Palmer modeli hamda CEFR (Common European Framework) modeli[11]. O‘zbek tilshunos olimlari J.Jalolov, G.Mahkamova va Sh.Ashurovlar tomonidan CEFRning olti darajasi bo‘yicha xorijiy tilni o‘qitishda kommunikativ kompetensiya (domestic model lingvistik competence) (til va nutq birliklari va ularni ishlatish qoidalari), sotsiolingvistik kompetensiya (sotsiomadaniy, diskursda tildan foydalanish), pragmatik kompetensiya (ijtimoiy diskurs, diskurs, strategik va sotsiomadaniy) komponentlarga ajratilgan[12].

Xorijiy tilni intensiv va tez o‘rganishda til o‘rganuvchining izchil harakati, amaliyoti, temperament va o‘rganish uslubi muhim omil hisoblanadi. O‘quv kursi o‘zining o‘qitish metodlari yordamida til ko‘nikmalari; tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishni kommunikativ muhitda rivojlantiradi. *Tinglab tushunish*ni rivojlantirishda audio-vizual materiallar; filmlar, tele-radio dasturlar va qo‘shiqlar samaralidir. Suhbatga jalb qilish va ravon *gapirish*: rolli o‘yinlar, bahslar, improvizatsiya mashqlari til o‘rganuvchiga ko‘proq ishonch bag‘ishlaydi, talaffuz, imo-ishora va ravon nutq ustida ishlashga yo‘naltiradi. *O‘qish*: gazeta va jurnal maqolalari, professional hujjatlar, ma’muriy shakllar, adabiyotlar, broshyuralar va varaqalar kabi haqiqiy yozma matnlar tahlil qilinadi. *Yozish:* kommunikativ maqsadlarga erishish va til haqidagi bilimini yaxshilashga qaratilgan yozma faoliyat majmuyidir.

Xorijiy til o‘qitish kurslari 6 nafardan 12 kishigacha bo‘lgan guruhlarda o‘qitish uchun mo‘ljallanadi. Til o‘qitish kurslarida xorijiy tillarni o‘qitishda ta’lim dasturlari til o‘rganuvchilarning qiziqishlari, talab va takliflari asosida yaratiladi. Masalan, sayohatchilarga fonetika, grammatika, lug‘atning asosiy qoidalari o‘rgatiladi; mehmonxona, bojxona, do‘kon va restoranlarda muloqot qilishda mumkin bo‘lgan vaziyatlar takrorlanadi; xizmat ko‘rsatish xodimlari (mehmonxona biznesi) uchun umumiy bilimlarga qo‘shimcha ravishda tez-tez duch keladigan vaziyatlar mashq qilinadi; elektron pochta va oddiy pochta orqali ishbilarmonlik yozishmalari, hisobot berish malakalari shakllantiriladi; advokatlar uchun asosiy e’tibor atamalarni o‘rganishga qaratilgan jonli muloqot amalga oshiriladi; texnik xodimlar (muhandislar, mexaniklar); axborotni erkin idrok etishga ham e’tibor beriladi.

Til kurslarida xorijiy tillarni o‘qitishning intensiv kurslari qisqa vaqt ichida til o‘rganuvchilarda kommunikativ maqsadlar, ya’ni atrofdagilar nutqini tushunish va o‘z fikrlarini erkin ifoda etish uchun tilni amaliy egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Til o‘rgatish bo‘yicha intensiv kurslarda xorijiy tillarni o‘qitish maktab va oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitishdan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlari bor. Intensiv termini [lot. *intensio* tezlatish, kuchaytirish] – jadal, qisqa muddatli; mashg‘ulot/kurs/egallash; ta’lim (qisqa muddatli

[11] Bagarić V., Mihaljević Djigunović, J. Defining communicative competence // Metodika, 2007. Vol. 8, br. 1. – P. 94-103.

[12] Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – P. 13.

jadallashtirilgan o‘qitish)ni anglatadi[13]. Rus metodisti A.N.Shukin “intensiv metodologiya – zamon talabidan kelib chiqib vujudga kelgan ta’lim tizimi. Umumiy shaklda ushbu talablar fanning minimal energiya xarajatlari bilan xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini tezlashtirishga erishishlari mumkin”[14] deya ta’kidlaydi.

Intensiv o‘qitish usullari, asosan, qisqa vaqt ichida xorijiy tilni, og‘zaki nutqni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quv soatlarining kunlik konsentratsiyasi va xorijiy til muhitiga singib ketish muhitini yaratishdir[15]. Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, intensiv o‘qitishga quyidagicha ta’rif berildi: “*Intensiv o‘qitish til o‘rganuvchilarning ko‘zlagan maqsadidan kelib chiqib, ta’lim jarayonini qisqa vaqtda ko‘p bilim va malakaga ega bo‘lishiga moslab tashkillashtirilgan ta’lim jarayonidir”.*

Ta’lim jarayonini tashkil etishda intensiv, an’anaviy hamda noan’anaviy (muqobil) ta’lim turlari bir nechta jihatlarga ko‘ra bir-biridan farqlanadi (1-jadval).

1-jadval

Intensiv, an’anaviy va noan’anaviy ta’lim turlarining taqqoslanishi

Ta’lim turlari	Farqlovchi jihatlari
Intensiv, an’anaviy va noan’anaviy ta’lim turlarining farqlanishi	maqsad, o‘qitish bosqichlari, yondashuvlar qo‘llanilishiga ko‘ra, metodlar, vaqt (taqsimoti), kontent tuzilishi, o‘qituvchi va til o‘rganuvchining roli, baholash hamda resurslar.

Masalan, intensiv ta’limning asosiy maqsadi: “qisqa muddatda chuqur va faol bilim/ko‘nikma berish, intensiv yuklama orqali malaka shakllantirish” bo‘lsa, an’anaviy ta’limda esa “uzluksiz va bosqichma-bosqich bilim berish, dastur asosida umumiy tayyorgarlik” nazarda tutiladi. Noan’anaviy ta’lim shakli shaxsiylashtirilgan, kontekstual va tajriba asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan, mustaqillikni rag‘batlantiruvchi ta’limni nazarda tutadi.

Tadqiqot ishining **“O‘quv kurslari til o‘rganuvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga doir intensiv o‘qitishning amaliy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobi o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish tamoyillari va metodlari, o‘quv dasturlari, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar tahlili, xorijiy tillarni intensiv o‘qitishdagi qiyinchiliklar va ularning yechimiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi ishlab chiqilgani bayon etilgan.

Til kurslaridagi intensiv o‘qitish xorijiy tilni o‘qitishga bo‘lgan kommunikativ yondashuv: nutqiy faoliyat, nutqiy harakat va nutqiy operatsiya sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladi (1-rasm).

---

[13] Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 393 b.

[14] Щукин А.Н. Современные интенсивные методы и технологии обучения иностранным языкам. Учеб. пособие. – М.: Филоматис, 2010. – С. 88.

[15] Щукин А.Н. Методы и технологии обучения иностранным языкам. – М.: Икар, 2017. – С. 40.



1-rasm. Xorijiy tilni intensiv o‘qitish sxemasi.

Nutqiy faoliyat – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o‘rnatish, o‘z harakatlarini rejalashtirishda tildan foydalanish jarayonidir (ma’lumot berish, muammoning yechimini topish va hk.). Nutqiy harakat yoxud verbal harakat – so‘zlashuvga asoslangan muayyan ijtimoiy harakat. Nutqiy operatsiya esa nutqiy faoliyat yuzaga kelishi shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan nutq harakatini bajarish usuli hisoblanadi.

Tadqiqotda til o‘rganuvchilarga o‘quv kurslarida ingliz tilini intensiv o‘qitish tamoyillari va o‘ziga xosligi belgilandi. Ularga quyidagilar kiritildi va samarali ekani asoslandi:

Kommunikativlik tamoyili (Principle of communication) tilni (uning tarkibiy elementlarini) nutq orqali, til birliklari va so‘z boyligini nutq modellari orqali kiritishni o‘z ichiga oladi. Ta’limning asosiy birliklari sifatida gaplar, iboralar va matn tanlanadi. Bunda ta’lim jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, kommunikativ o‘qitish orqali dasturda tavsiya etilgan mavzular doirasida muloqotni ta’minlashga oid ko‘nikma va malakalarning tegishli minimumi til o‘rganuvchilarda shakllanilishi zarur.

Vaziyat tamoyili (Principle of situation). Ingliz tilini o‘qitishning asosiy maqsadi til o‘rganuvchilarga undan foydalanish imkoniyatini berishdir. Shu sababli tilni muloqot jarayoniga mos real yoki tasavvur qilingan vaziyatlarda mashq qilish lozim. Til o‘rgatish amaliy hayot bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, ko‘zlangan natijaga erishish qiyin kechadi. Tilni vaziyatli holda o‘rgatishda barcha jumlalar real vaziyatdan kelib chiqadi, til o‘rganuvchilar bu bilimlarni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llashlari mumkin.

Tizimlilik tamoyili (Principles of systematicy) tinglash uchun lisoniy materialni tanlab olish va taqdim etish bir chiziq bo‘yicha, konsentrik elementlari bilan tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Rejalashtirish tamoyili (Principle of planning). Samarali o‘qitish to‘g‘ri rejalashtirishni talab qiladi. Rejalashtirish tamoyili o‘qitish tizimining muhim elementidir. Samarali rejalashtirish mukammal ishlab chiqilgan o‘quv dasturi,

o‘quv maqsadlari, o‘qitish va ta’lim faoliyati baholash mexanizmi til o‘rganuvchilarning mavzuni tushunishini tekshirish uchun baholash usullari kabi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Motivatsiya tamoyili (Principle of motivation) xorijiy tilni o‘zlashtirishning muhim omilidir. Bunda til o‘rganuvchi muvaffaqiyati o‘qituvchining motivatsiya uyg‘ota olish qobiliyatiga bog‘liq. Til o‘qituvchilar motivatsiya va uning tilni o‘zlashtirishga ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunmasalar, tilni samarali o‘rgata olmaydilar. Shu bois til o‘rganuvchilar uchun e’tirof etilgan va qadrlanganligini his qiladigan do‘stona muhit yaratish muhimdir.

Fikr-mulohaza tamoyili (Principle of Feedback learning). Fikr-mulohaza (feedback) til o‘rganuvchilarga o‘quv jarayonini takomillashtirishning muhim elementidir. Fikr-mulohaza o‘rganishni kuchaytiradi va til o‘rganuvchilar natijalarini yaxshilaydi.

Xilma-xillik tamoyili (Principle of diversity) o‘qitish jarayonini yaxshilashning ta’sirchan omillaridan biridir. O‘qituvchi auditoriyani jonli va qiziqarli qilish uchun turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, fikr-mulohazalar texnikasi, resurslar va turli xil o‘qitish usullaridan foydalangan holda rang-baranglikni ta’minlaydi.

Guruh dinamikasi tamoyili (Principle of group dynamics). O‘qituvchi tinglovchilarni raqobat ruhi, o‘zaro tushunish va birdamlik hissini rivojlantiradigan guruh faoliyati hamda guruh topshiriqlarida ishtirok etishga undashi kerak. Guruh dinamikasi prinsipi guruh faoliyatidagi ishtiyoqni rag‘batlantiradi. Shu orqali til o‘rganuvchilar ko‘proq til amaliyotiga ega bo‘lishadi, chunki mashg‘ulotlarning aksariyati juftlik yoki guruhlarda amalga oshiriladi. Bu guruh faoliyati ham tinglovchida ishonch va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Faoliyat tamoyili (Principle of operation). Mazkur tamoyil til o‘rganuvchining turli xil tadbirlarni amalga oshirish orqali o‘rganishini anglatadi. Bunda o‘qituvchi boshqaruvchisi, yordamchi, maslahatchi, kommunikator va monitoring kabi turli rollarni o‘ynashi kerak. Faoliyat nafaqat til o‘rganuvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, balki til o‘rganuvchilar bilan til o‘rganuvchilar, o‘qituvchilar va til o‘rganuvchilar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatni rivojlantiradi.

Interaktiv tamoyil (**Principle of interactive**). Ushbu tamoyil til o‘rganuvchi va o‘qituvchining auditoriyadagi hamkorligini faollashtirish asosiga quriladi: til o‘rganuvchilar bir-birlarini ko‘rib, fikr almashishadilar; o‘qituvchi esa ularning ishini kuzatadi, muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha hammaning fikrini eshitmasdan o‘z munosabatini bildirmaydi va muhokamani yakunlab, “hakam” rolini o‘ynaydi. Bu, ayniqsa, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari, amaliy tadqiqotlar va boshqa interaktiv texnologiyalarni tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Biz tadqiqotimizda ingliz tilini intensiv o‘qitish metodlaridan CLT (Communicative language teaching), Suggestopedia va Situational language teaching (situatsion) metodlaridan foydalandik.

CLT (Communicative language teaching) metodida asosiy e’tibor til o‘rganuvchilarga aniq intensiv tuzilmalarni egallashdan ko‘ra ma’no yaratishga qaratilgan. Til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga

e’tibor qaratish o‘zlashtirish muhimligini nazarda tutadi. Ushbu maqsadga erishish uchun o‘qituvchilar ifodalash va tushunish zarurligiga qaratilgan materiallardan foydalanadilar. Bu metodda til o‘rganuvchi markaziy o‘rinni egallaydi (student-centered) va o‘qituvchi vositachi (facilitator) vazifasini bajaradi.

Suggestopediya metodi. Ushbu metod barcha yosh guruhlari bilan ishlashda qo‘llanilishi mumkin. Biroq o‘qishning yuqori bosqichi ko‘p imkoniyatlar beradi. Buning sabablari: shaxs rivojlanishining eng yuqori darajasi, keng ma’lumot zaxirasi, boshqa insonlar bilan muloqot qilish orqali dunyoni tushunish istagi va boshlang‘ich til bazasining mavjudligi. Mavzular va muloqot holatlarini tanlashda, o‘quv jarayonining mazmunini ta’minlashda va kommunikativ vazifalarni shakllantirishda yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Situatsion metod. Situatsion tilni o‘rgatish asosini o‘rganish nazariyasi bixevioristik odatlarni o‘rganish nazariyasining bir turidir. U, avvalo, o‘rganish shartlariga emas, balki jarayonlarga murojaat qiladi. Bu usul aniq vaziyatlarda ishlatadigan iboralarni o‘z ichiga oladi. Masalan, restoranda, kiyim-kechak xarid qilish yoki turistik ma’lumot so‘rash kabi.

Kuzatishlarimiz natijasida ma’lum bo‘ldiki, o‘quv kurslarida ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘quv dasturlari turlicha shakllantirilgan. Diqqatimizni tortgan jihati asosiy e’tibor o‘quv dasturlariga emas, balki amaliyotga qaratilgani bo‘ldi. Bundan tashqari, kurslar tomonidan yaratilgan o‘quv dasturlari ba’zi kamchiliklarga ega ekanligini ham aniqladik. Jumladan, mavzularda umumiylik mavjud emasligi; bir kunlik vazifalar turlicha berilgani (ba’zi kunlari juda ko‘p, ba’zi kunlari kam); yuklamalar tartibsiz rejalashtirilgani; tanlangan mavzular ba’zan takrorlangan va dolzarb mavzular yoritilmagani; o‘quv dasturlarining maqsad hamda vazifasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish belgilanmagani va h.k.

Til ta’limida xorijiy til, ingliz tilini intensiv o‘qitish L.Gegechkori tomonidan til ta’limiga kiritildi va bunda olim suggestopediya metodi orqali o‘qitishning besh siklini ifodaladi. Ular doirasida til materiallari, xususan, tilning leksik va grammatik xususiyatlarini rivojlantirish amalga oshirishga qaratildi. Biroq chet tilidagi muloqot qobiliyatlarini o‘zlashtirish yo‘lida kattalar juda ko‘p qiyinchiliklarni yengishga majbur bo‘lishadi. Shu nuqtayi nazardan ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: *makro darajadagi muammolar, mikro darajadagi muammolar va subyektiv to‘siqlar*.

Makro darajadagi qiyinchiliklar bo‘yicha chet tilini o‘rganishga bo‘lgan ijtimoiy bosim, stereotiplar; yoshga oid noto‘g‘ri qarashlar (kattalar endi til o‘rgana olmaydi degan tushuncha); jamoatchilik fikri va stereotiplar til o‘rganuvchining ichki motivatsiyasiga ta’sir qilishi aniqlandi. Mikro darajada o‘qituvchining yetarli pedagogik tayyorgarligi yoki metodik bilimlari yetishmovchiligi; o‘quv materiallarining amaliyotga mos kelmasligi; uy sharoitidagi o‘qishga nisbatan shaxsiy daxlsizlik buzilishi kuzatildi. Subyektiv to‘siqlar sifatida reaksiyaning sekinligi (so‘zlarni tez eslab qolish va darhol qo‘llashni talab qiladigan dars usullari kattalar uchun qiyinchilik tug‘dirishi); tashqi psixologik to‘siqlarga esa ijtimoiy mavqeyi va “o‘quvchi” maqomi o‘rtasidagi ziddiyat; kasbiy malakasi va til bo‘yicha qiyoslab, o‘zini qadrsiz his

qilish; ichki psixologik to‘siqlar o‘z ichiga motivatsiyaning pastligi, o‘ziga ishonchsizlik, xatodan qo‘rqish kabi psixo-fiziologik to‘siqlardan iboratligi ma’lum bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlarida til o‘rganuvchilarni darajasiga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratib, turli tizimga ega bo‘lgan mashqlar tizimi taklif etildi. Ular o‘rganuvchilar darajasi va mualliflik yondashuvi asosida quyidagicha nomlandi (2-jadval).

2-jadval

Intensiv o‘quv kursi o‘rganuvchilarining guruh nomlanishi

Guruh	Mualliflik yondashuvi asosidagi nom	CEFR bosqichlari	Ilmiy-metodik asos	Til o‘rganuvchi taraqqiyoti
A1 → B1	Bosqichli kommunikativ o‘rganuvchilar (BKO‘)	A1 → A2 → B1	V.Buxbinder, J.Jalolov	Grammatika va leksikani muloqotga yo‘naltirish
A2 → B2	Ijodiy kommunikativ o‘rganuvchilar (IKO‘)	A2 → B1 → B2	E.Passov, D.Nunan	Fikr bildirish, tahlil qilish va erkin ifoda

